

ASAD DILMURODNING “XILVAT”HIKOYASI TAHLILI

Navro'za Raximova

FarDU Adabiyotshunoslik yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Asad Dilmurodning "Xilvat" hikoyasi, o'zbek adabiyotining zamonaviy namunalaridan biridir va unda insonning ichki dunyosi, o'zini anglash, odamlar o'rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy muammolar tasvirlanadi. Hikoya, asosan, odamning yolg'izlik va insoniy holatlarni o'rganadi, shuningdek, adolat va taqdir haqidagi savollarni o'rta tashlaydi. Tarixiy mazmunda yozilgan ushbu hikoya haqida ayrim fikrlarni ko'rib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Xarakter, hikoya, obraz, tip, detal, sujet, xilvat, kampir, Amir Temur, tuguncha, assotsiativ, konsentrik, xronikal, retrospektiv.

Hikoya — bu qisqa adabiy asar bo'lib, unda biror voqea yoki holat tasvirlanadi. Hikoyalar odatda bir yoki bir nechta qahramonlar, ularning o'zaro munosabatlari va voqealar rivoji orqali o'zining asosiy g'oyasini yoki xabarini yetkazadi. Hikoya odatda qisqa hajmda bo'ladi va voqealar ketma-ketligi, xarakterlarning rivojlanishi va ularning ichki dunyosi haqida o'ylashga undaydi. Hikoya janri, ko'pincha odamlarning kundalik hayotidagi oddiy holatlar yoki jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni o'zgacha badiiy uslubda aks ettiradi.

Hikoyaning o'ziga xosligi shundaki, unda voqea tez rivojlanib, qisqa vaqt ichida o'z yakuniga yetadi, shuningdek, ular ko'pincha aniq bir xulosaga yoki tafakkurga olib keladi.

Endi badiiy xarakterga qaytsak. Badiiy xarakter – adabiyotda yoki san'atda yaratilgan, asar orqali ma'lum bir xususiyat, his-tuyg'u yoki maqsadga ega bo'lgan obrazdir. Badiiy xarakter, odatda, muayyan vaziyatlar yoki ijtimoiy-madaniy

sharoitlarda o'zini qanday tutishini, fikrlarini, qarashlarini va ichki dunyosini ko'rsatadi. U asar davomida rivojlanishi mumkin, ya'ni boshlanishidagi xatti-harakatlari va so'zlari asar davomida o'zgarib, murakkablashishi mumkin. Badiiy xarakter asarning asosiy mag'zi hisoblanadi. Chunki xarakterda obrazning mohiyati, tirikligi, zaruriyligi, joni mujassamdir. Xarakter yaratish badiiy asarning asosiy masalasi hisoblanadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, xarakter-bu aniq iroda yo'nalishiga ega bo'lgan, O'z xatti-harakatlari, intilishlari, o'y-hayollari, dunyoqarashi, ma'naviyati, fe'l-atvori bilan boshqalardan ajralib turadigan to'laqonli shaxslar obrazidir. Shu sabab badiiy asardagi hamma qahramonlar xarakter sanalmaydi. Jumladan "O'g'ri" hikoyasidagi Qobil bobo xarakter sanalsa qolganlar personaj bo'ladi.

Badiiy xarakterlarning turli turlari mavjud:

1. Markaziy xarakter – asarning asosiy qahramoni bo'lib, uning atrofidagi voqealar va qarorlar asosida hikoya rivojlanadi.
2. Yordamchi xarakterlar – asosiy qahramonlar bilan aloqada bo'lgan, lekin asarning markazida bo'lmagan obrazlar.

Badiiy xarakterning shakllanishi va rivojlanishi asarning mavzusi, janri va muallifning maqsadiga qarab farq qiladi.

“Xilvat” hikoyasi tahlili

Dastlab hikoya nomi nega aynan “Xilvat” deb nomlanganiga e'tibor qaratsak. Hikoyaning asosiy mavzusi — insonning yolg'izlik va ichki kurashi. Xilvat, ya'ni yolg'izlik, hayotning murakkabligi va odamlarning o'zaro munosabatlaridagi muammolarni ko'rsatadi. Asad Dilmurod bu mavzuni insonni o'zining haqiqiy holatini tushunishga chaqirgan tarzda rivojlantiradi. Asosiy qahramon, o'zining ichki his-tuyg'ulari va tashqi dunyo bilan munosabatlarini hisobga olib, o'zini yolg'izlikda topadi. Bu xilvat, uning o'zini anglash jarayonini boshdan kechirishga imkon beradi. Hikoyadagi qahramonlarning psixologik holati, ularning ichki kurashlari, ruhiy

iztiroblari va hayotga bo'lgan qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xilvatda qahramonlar o'zlarini aniqlash, biror narsaga erishish yoki biror holatni o'zgartirish uchun kurashadilar.

Hikoyada voqealar rivoji tugundan boshlanadi. Demak hikoya konsentrik sujet asosiga qurilgan. "Kuz quyoshi ostida mudrayotgan shahar ko'chalarida yupun kiyingan, kalta sochlari qirovlagan ozg'in kampir tushiga changali dov qarchig'ay kirganini ayta-ayta so'ylanib yurar edi..." Endi o'quvchida savol tug'iladi "Kampir kim?", "Nega u hammaga tushini aytib aytib yuribdi?", "Hikoyada kampirning ro'li qanday?" va yana shu kabi ko'plab savollar. Bu savollar javobini o'quvchi hikoyani o'qish davomida bilib boradi.

"Xilvat" hikoyasida ham voqealar rivoji juda tez amalga oshadi va qahramonning nigohida o'zi bilmagan holda yechim kelib chiqadi. Hikoya bosh qahramoni Turon zamin o'lkasi sohibqironi Amir Temur. Hikoyada Temurning "Kuch – adolatda" degan so'zlariga amal qilganini yana bir bor guvoh bo'lamiz. Shunga qaramay har yerda bo'lgani kabi Temurning atrofida ham nokas, o'z foydasi uchun begunohlar uvalidan qo'rqmaydigan insonlar yo'q emasdi. Aynan ularning kasriga Temur bir umrlik vijdon azobiga qoladi. Bir mushtipar onaning eng so'nggi najotini saqlab qola olmaydi (eng achinarlisi kampirning ikki o'g'li va turmush o'rtog'i ham Temur qo'shinlarining safida vafot etadi). Bunday vaziyatda Temur faqatgina xilvatdan o'ziga halovat topadi. Amir Temur haqidagi boshqa asralardan farqli o'laroq, bu hikoyada Temurning Sohibqironligi, dunyoni egallagani, necha-necha dushmanlarni yer tishlatgani emas, balki, Temurning e'tiqodi, Ahmad Yassaviyga murid bo'lgani, uning ham yolg'izlikda kechadigan kechinmalari haqidagi xarakteri ochilgan.

Asardagi kampir obraziga qaytsak. Biz bu kampirni to'liq xarakter deb olishimiz mumkin, chunki hikoyadagi kampir o'sha paytdagi aholining tipik vakili edi, atrofda unga o'xshaganlar juda ko'p bo'lsa-da, faqat kampirgina bu azob-uqubatlar haqida qo'rqmay gapira oladi, hattoki hukmdorga ham undan xavotir

olmasligini, tegirmon(xalq) holidan xabar olishi kerakligini kesatib o'tadi va aynan shu muomalasi uchun shahar hokimi buyrug'iga ko'ra hibsga olinadi.

Hikoyada Erxon, Sarbug'o kabi obrazlar ham uchraydi. Sarbug'o obraziga ta'rif bersak, hukmdor bergan amaldan foydalanib, xalqni tunagan, azoblagan, o'z ayblarini yashirish maqsadida hukmdor ozod qilgan bir begunoh insonni, oilasining yolg'iz boquvchisi bo'lgan Erxonni xunrezlarcha o'ldirgan va aybni o'zidan soqit qilgan xarakter tasvirlanadi.

Erxon obrazi esa o'ylamay qadam bosib, oldingi qilgan ayblari kasriga hibsga olingan, xazinadan pul olmagan bo'lsada yovuz shaxslar hiylasiga duchor bo'lgan, oqibatda o'limiga ham yolg'on aralashgan obrazdir. Erxonning onasi bu qilg'iliklarning bariga uning otasiz o'sganligini, ota qahrini ham mehrini ham ko'rmagan farzandi ko'zi och bo'lib ulg'ayganini aytib o'tadi.

Hikoyada badiiy detal ham alohida ro'l o'ynaydi. Detal bu badiiy asarda yechim uchun xizmat qiladigan muhim unsurdir. deyarli har bir asarda kamida bir dona detal bo'ladi. detal xoh asarning boshida, xoh o'rtasida keladi, lekin qay holda bo'lmasin, albatta, o'z vazifasini bajaradi. Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytsa asarda miltiq bormi, demak u aniq o'tiladi. Ushbu hikoyamizdagi detal esa kampir qo'lidagi tugancha edi. Keling, uning asarda qanday uchraganiga to'xtalib o'tamiz:

“Barini avvalidan-oxirigacha esladi: omad butunlay yuz o'g'irgan o'sha mudhish kunda, barcha sherigidan adashib qolib, mo'g'ullar pistirmasiga duch kelgan va yelkasiga kamon o'qi sanchilgan edi. Uzoq muddat tuz totmay, ko'p qon yo'qotgani sababli, tinkai madori qurib, oxiri bir qishloq yaqinida yuztuban quladi. Es-hushini yig'saki, mol tezagi va pichan hidiga to'la nim qorong'i og'ilda, pichan g'arami ichra aftodahol yotibdi. Kimdir malham surib, yarasini bog'labdi. Keyin bilsa, xaloskori xokisor va nozikkina xushro'y ayol ekan...

Tez orada kuch-quvvatga engach, ayolni siylamoq niyatida, cho‘ntagini kovladi-yu, sariq chaqa ham topolmadi. Oxiri, xijolatini yashirolmay, quruq rahmat aytish bilan kifoyalandi.

Qor ko‘rpasi ostida mudrayotgan Kesh sari yuzlanarkan, bo‘z yigit bo‘lib bo‘y ko‘rsatganda, padari Tarag‘ay bahodir ezgu niyat bilan beliga bog‘lab qo‘ygan kamarni o‘sha yerda unutib qoldirganini bildi. Oh, shunaqa afsus chekdiki, neder og‘riqdan qatto yuragi tars yorilayozdi. Axir, u shunchaki oddiy buyum emas, bahosi ham, takrori ham yo‘q yodgorlik: yetti pushtini ko‘rgan va yetti bobokaloni jismu joniga mador bo‘lgan. Uzoqni ko‘ra oladigan buzrukvori esa, vaqti-soati yetganda, o‘zi uni eng jo‘mard va oqil farzandiga topshirishi lozimligini necha marta qulog‘iga quygandi.

Sohibqiron g‘amu anduhga botdi, vaqtни boy bermay, besh-o‘n ishonchli navkar bilan haligi qishloqqa oshiqib keldi. Ammo kuniga yaragan ayol daragini topolmadi, hovli-joyini mo‘g‘ullar yoqib yuborgan ekan...

Sohibqiron, kamarni yodidan chiqarmagan esa-da, allaqachon undan umidini uzgandi. Axir, bunaqa narxi baland kamyob molni kim ham o‘ziniki qilib olishni istamaydi.

–Onaxon, faqir shu damgacha hech kimga, hatto qudrati zo‘r podshohlarga ham bo‘y egmay yashadim. Ammo sizga ta‘zim qilsam yarashur. Bugundan sizga o‘g‘il bo‘ldim!..”

Hikoyadagi kampir nafaqat olomon ichidan otilib chiqqan, ba‘zilarning ta‘biriga ko‘ra “ayollardan chiqqan birinchi qalandar” bo‘libgina qolmay, dinida mahkam turgan, bir yigit omonatini ko‘z qorachig‘iday saqlay olgan ojiza edi u.

Xulosa qilib aytganda Asad Dilmurodning ushbu hikoyasi hukmdorlar adolati ezilgan xalq uchun qanchalar zarur ekanligini yana bir bor isbot qildi. Mushtipar ona obrazida esa haqiqiy Allohdan qo‘rqadigan, qay holatda bo‘lmasin diniga, omonatiga xiyonat qilmaydigan ayolni kashf etdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Asad Dilmurod “Xilvat” hikoyasi
- 2.H.Umurov.Adabiyotshunoslik nazariyasi;Xalq merosi,2004
- 3.Internet ma’lumotlari.